O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

IMKONIYATI CHEKLANGAN, UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALAR TA'LIMI JARAYONIDA DARS VA MASHG'ULOTLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, doktorant.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan va uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarning ta'lim olish jarayonida dars va mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar yoritilgan. Inklyuziv ta'lim, uy ta'limi hamda "Mehrli maktab" tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining faoliyati, bolalarni ushbu muassasalarga qabul qilish tartibi, individual yondashuv, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini tibbiy-reabilitatsiya tadbirlari bilan uyg'unlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, uzoq muddatli davolanish, maxsus pedagogika, uy ta'limi, Mehrli maktab, individual yondashuv, ixtisoslashtirilgan ta'lim, psixologik-pedagogik yordam, reabilitatsiya.

ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ И УЧЕБНЫМ ЗАНЯТИЯМ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ И НУЖДАЮЩИХСЯ В ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ

Дехканова Муборакхон Гиёзиддин кизи

Национальный институт педагогики воспитания имени Кары Ниязи, докторант.

Аннотация.

В статье рассматриваются педагогические требования к организации уроков и учебных занятий в процессе обучения детей с ограниченными возможностями здоровья и детей, нуждающихся в длительном лечении. Раскрываются особенности эффективной организации образовательного и воспитательного процесса в условиях инклюзивного образования, обучения на дому, а также в системе «Мехрли мактаб». Кроме того, анализируются деятельность специализированных образовательных учреждений, порядок приёма детей в данные учреждения, вопросы индивидуального подхода, психолого-педагогической поддержки и интеграции образовательного процесса с лечебно-реабилитационными мероприятиями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, длительное лечение, специальная педагогика, обучение на дому, Мехрли мактаб, индивидуальный подход, специализированное образование, психолого-педагогическая помощь, реабилитация.

REQUIREMENTS FOR LESSONS AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN TEACHING CHILDREN WITH DISABILITIES AND THOSE REQUIRING LONG-TERM MEDICAL TREATMENT

Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi

National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyoziy, Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the pedagogical requirements for organizing lessons and educational activities for children with disabilities and those requiring long-term medical treatment. It explores the specific features of effectively organizing teaching and educational processes within inclusive education, home-based education, and the "Mehrli Maktab" system. In addition, the article analyzes the activities of specialized educational institutions, admission procedures for children to these institutions, individualized approaches, psychological and pedagogical support, and the integration of educational processes with medical and rehabilitation measures.

Keywords: inclusive education, children with disabilities, long-term medical

treatment, special education, home-based education, Mehrli Maktab, individualized approach, specialized education, psychological and pedagogical support, rehabilitation.

Kirish. Imkoniyati cheklangan shaxslar deganda hayotiy faoliyatini shu yoshdagi odamlar uchun me'yor deb hisoblangan tarzda amalga oshirish qobiliyatining yo'qligi yoki cheklanganligi bilan tavsiflanadigan shaxslar toifasi tushuniladi.

Ushbu tushuncha odatdagi xatti-harakatlar yoki faoliyat bilan taqqoslaganda me'yordan ortiq yoki yetishmaydigan holatlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, nogironlik vaqtinchalik yoki doimiy, progressiv yoki regressiv bo'lishi mumkin. Biroq ushbu holatlarga qaramasdan, imkoniyati cheklangan bolalar ham ta'lim olish va tengdoshlari kabi bilimga bo'lgan ehtiyojlarini bir xil darajada qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Inklyuziv ta'lim, uy ta'limi va "Mehrli maktab" kabi maxsus ehtiyojli bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim tizimlarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish turli vosita va yondashuvlarga asoslanadi.

Inklyuziv ta'lim — bu imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiya qilish jarayoni bo'lib, unda barcha bolalarning teng imkoniyatlar asosida ta'lim olishi ta'minlanadi.


Uy ta'limi — bu uzoq muddat davolanishga muhtoj yoki boshqa sabablarga ko'ra maktabga bora olmaydigan bolalar uchun uyda ta'lim olish shakli.

"Mehrli maktablar" — nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar bo'lib, ularda bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan ta'lim va terapevtik dasturlar amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'lim, uy ta'limi va "Mehrli maktablar"da pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy maqsadi har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratishdir. Bu jarayonda individual yondashuv, yordamchi texnologiyalar, terapevtik xizmatlar va o'quv muhitini moslashtirish muhim o'rin tutadi. Ta'lim va reabilitatsiyaning birgalikda olib borilishi imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishiga sezilarli yordam beradi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish tartibi

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan mintaqadagi jismoniy va psixik



rivojlanishda imkoniyati cheklangan, maxsus sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishga muhtoj bolalarning mavjud kontingentini birgalikda o'rganib chiqish yakunlari bo'yicha tashkil etiladi.

Bunday bolalar kontingenti aniqlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ekologik qulay sharoitlar mavjud joylarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish to'g'risida asoslangan taklif bilan murojaat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etish to'g'risidagi takliflar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish rejalashtirilayotgan hududda oxirgi 5 yilda 3 yoshdan 16 yoshgacha bolalar o'rtasida tegishli kasalliklarning ko'payganligini ko'rsatadigan sog'liqni saqlash organlarining rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslanishi kerak.


Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I–VIII) turlarga bo'linadi:

I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;

II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar (1–2-daraja);

III — ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun maktab-internatlar;

IV — zaif ko‘radigan va keyinchalik ko‘r bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
V — nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
VI — tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
VII — psixik rivojlanishi sust bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
VIII — aqli zaif bolalar uchun yordamchi maktablar, maktab-internatlar.



Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga ularning turiga muvofiq holda I–IV darajali skolioz bilan kasallangan, sil va nafas olish organlarining surunkali kasalliklariga chalingan, alohida shart-sharoitlarda davolash va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan maktab yoshidagi bolalar qabul qilinadi.

Bolalarni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasiga yuborish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi tomonidan ushbu organlar huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o‘rinlarda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya deb ataladi) xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasiga bolalar 7 yoshdan boshlab qabul qilinadi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasiga yo‘llangan har bir bola uchun ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (chin yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun — vasiylik va homiylik organlari) tomonidan shaxsiy hujjatlar yig‘majildi rasmiylashtiriladi va taqdim etiladi.

Bolaning shaxsiy hujjatlar yig‘majildida quyidagi hujjatlar bo‘ladi:

1. Ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;
2. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosalarining ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasiga yo‘llangan bola bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy va davolash-tuzatish ishlari bo‘yicha tavsiyalari aks etgan bayoni;
3. Tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi;
4. Ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatlar;
5. O‘qish joyidan ta’lim muddati, o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi va xulq-atvori, bolaga yakka tartibda ko‘mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma’lumotnoma va tavsifnoma;
6. Bolaning yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanish tarixidan mufassal ko‘chirma hamda pediatrning bolaning umumiy rivojlanish holati to‘g‘risidagi xulosasi;
7. Psixonevrologning tibbiy tashxis bilan asoslangan va bolaning aqliy rivojlanishiga berilgan tavsifni o‘z ichiga olgan xulosasi;
8. Otorinolaringologning quloq, tomoq, burun va talaffuz artikulatsiyasida ishtirok etuvchi organlarning holatiga

berilgan tavsifni o‘z ichiga olgan xulosasi;

9. Oftalmologning ko‘rish organiga berilgan tavsifni o‘z ichiga olgan xulosasi;

10. Ortoped vrachning xulosasi (tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan, skoliozga chalingan bolalar uchun);

11. Vrach-ftiziatrning xulosasi (tuberkulyoz va nafas olish organlarining surunkali kasalliklari rivojlanishi xavfi ostidagi bolalar guruhlari uchun).

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qitish umumiy o‘rta ta’lim o‘quv rejalari va ta’lim dasturlari asosida olib boriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi umumiy o‘rta ta’lim davlat standartlariga muvofiq 1–9-sinflar hajmida o‘quvchilarga majburiy umumiy o‘rta ta’lim beruvchi sog‘lomlashtirish ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Davolanish, sog‘lomlashtirish va ta’lim olishga muhtoj bolalar ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 1–9-sinflariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi yo‘llanmalari asosida, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra, shuningdek, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan qabul qilinadi.

Bolalarni qabul qilish o‘quv yili boshlangunga qadar amalga oshiriladi va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida bolalarning bo‘lish muddati tibbiy ko‘rsatmalarga muvofiq va psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan, lekin 3 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida sil va nafas olish organlarining surunkali kasalliklari rivojlanishi xavfi mavjud guruhdagi bolalar uchun sinflar va tarbiyalanuvchilar guruhining to‘ldirilishi kamida 25 nafarni, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sinflar va tarbiyalanuvchilar guruhining to‘ldirilishi esa kamida 20 nafarni tashkil qiladi.

Bolalarni qabul qilish o‘quv yili boshlangunga qadar amalga oshiriladi va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida bolalarning bo‘lish muddati tibbiy ko‘rsatmalarga muvofiq va psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan, lekin 3 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida sil va nafas olish organlarining surunkali kasalliklari rivojlanishi xavfi mavjud guruhdagi bolalar uchun sinflar va tarbiyalanuvchilar guruhining to‘ldirilishi kamida 25 nafarni, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sinflar va tarbiyalanuvchilar guruhining to‘ldirilishi esa kamida 20 nafarni tashkil qiladi.

Bolalarning mehnat tarbiyasi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi pedagogik va tibbiy xodimlarining tibbiy ko‘rsatmalari hamda tavsiyalariga ko‘ra, ta’limni egallangan mehnat ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar uchun turli to‘garaklar, qiziqishlariga ko‘ra klublar, seksiyalar (jumladan, shifokorlar tavsiyalariga ko‘ra sport seksiyalari) va bolalarning intellektual hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan studiyalar tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida ta’lim jarayonining psixologik ta’minotini muassasa shtatidagi psixolog amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova F. U., Pulatova D. A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Zebo-print, 2022.
2. Shomahmudova R. Sh., Berdiyeva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. – 2018.
3. Qaxarova D. S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi: o‘quv-metodik qo‘llanma. – Fan va texnologiya, 2014.
4. Кодирова Ф. У. и др. Лечебная педагогика. – Zebo-print, 2022.
5. Qodirova F. U., Jo‘raxo‘jayev M. Uyda yakka tartibdagi ta’lim. – Zebo-print, 2022.
6. Qodirova F. U., Sayfullayeva I. Q. Inklyuziv va korreksion ta’limda art-texnologiyalar. – Zebo-print, 2022.
7. Qodirova F. U., Yunusova X. Sh. Inklyuziv va korreksion ta’limning filologik asoslari texnologiyalar. – Zebo-print, 2022.
8. Abdullayeva G. S. Maxsus va inklyuziv ta’limda AKT. – Zebo-print, 2022.